

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI  
FANINING O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200 000 – San'at va gumanitar soha  
**Ta'lim sohasi:** 220 000 – Gumanitar fanlar  
**Mutaxassisliklar:** 70220303 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha)  
70230501 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

Toshkent – 2022

*[Faint, illegible text, possibly bleed-through from the reverse side of the page]*

*[Circular stamp or mark]*

*Cherub*

*[Large cursive signature]*

*[Small cursive signature]*

|                             |  |                         |  |                              |                           |
|-----------------------------|--|-------------------------|--|------------------------------|---------------------------|
| Fan/modul kodi<br>MFO'MI302 |  | O'quv yili<br>2022-2023 | Semestr<br>3                           | ECTS - Kreditlar<br>2        |                           |
| Fan/modul turi<br>Majburiy  |  | Ta'lim tili<br>O'zbek   |  | Haftadagi dars soatlari<br>2 |                           |
| 1.                          | Fanning nomi   |                         | Auditoriya<br>mashg'ulotlari<br>(soat) | Mustaqil<br>ta'lim (soat)    | Jami<br>yuklama<br>(soat) |
|                             | Maxsus fanlarni o'qitish<br>metodikasi   |                         | 24                                     | 36                           | 60                        |
| 2.                          | <p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – “Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fani magistratura talabalariga mo'ljallangan bo'lib, bo'lg'usi mutaxassislarga o'zlari tanlagan ixtisoslik bo'yicha malakalami yanada mustahkamlash uchun kelajakda boshqaruv asoslari, fanning maqsadi talabalarga maxsus fanlardan dars o'tishning turli metodlarini qo'llashni o'rganish va o'quv jarayonini tashkil qilish va tatbiq qilish ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – ko'zlangan maqsadni amalga oshirish vazifalari rejalashtirilgan mavzularda aks ettirish, o'qitishning barcha asosiy interaktiv metodlarini qo'llash, ko'rgazmali qurol, tarqatma materiallar, texnologik xarita, loyiha tayyorlash va boshqalarni o'rganishga qaratilgan. Fanning vazifalari quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: “Maxsus fanlarini o'qitish metodikasi” fanining dolzarb vazifalari, muammolarini tanishtirish, ijtimoiy maskanlari va ularning shaxs faoliyatiga ta'sirini o'rgatish; malaka va kompetensiyani baholashning mohiyati va turlarini bilishni shakllantirish; kasb tanlovini tashkil etishning samarali usul-vositalariga oid bilimlarni berish; metodikaning o'ziga xos jihatlarini o'rgatish; guruh sharoitida samarali ta'sir etish usullaridan hisoblangan treninglar, munozarali-suhbatlarni o'tkazish texnikasi bilan tanishtirishdan iborat; mustaqil fikrlashga o'rgatish va ilmiy-amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p>1–ma'ruza. Kirish. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari, predmeti va ob'yekti.</p> |                         |  |                              |                           |

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasini pedagogik fan sifatida shakllanishdagi asosiy omillar, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda tarix o'qitishning ahvoli, fashizmga qarshi urush yillarida O'zbekistonda tarix fanini o'qitishning ahvoli qanday bo'lgan, mustaqil O'zbekistonda tarix o'qitish metodikasining ilmiy pedagogik fan sifatida shakllanishi uchun qanday shart sharoitlar yaratilganligini ochib berish. Metodika, pedagogika, metod, metodlarga yondashish, reproduktiv faoliyatni ta'minlovchi metod, produktiv faoliyatni ta'minlovchi metod, didaktika, didaktika prinsiplari (tamoyillari), didaktik kabi tushunchalarga izoh berish.

## **2-ma'ruza. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining fanining nazariy va metodologik asoslari.**

O'qitish metodlarining serqirraligi, murakkab tuzilishga ega ekanligi unga turli jihatdan yondashuvlarda o'z ifodasini topadi, didaktika. uning tamoyillari va o'quv jarayonini tashkil etish, o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etuvchi sub'ekt, Texnologiya, pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyasi, tarbiya texnologiyasi, ta'lim jarayoni, dars o'tish metodlariga yondashuv, an'anaviy ko'rgazmali yondashuv, texnologik yondashuv, tadqiqiy ijodiy yondashuv, integrativ yondashuv, modul texnologiyasi va boshqa uslubiy qarashlarni o'rgatish.

## **3-ma'ruza. Mutaxassislik fanlari darslari va unga bo'lgan zamonaviy talablar.**

Tarix darslari va unga bo'lgan zamonaviy talablar, axborot qabul qilish, tahliliy fikrlash, insonga xos individual xususiyatlar, introvert, ekstrovert, o'qitish piramidasi, interaktiv metodlar, motivatsiya, printsip, pedagogik qonuniyatlar, masofadan o'qitish, tarixchi-metodist olimlar V.N.Bernadskiy, V.G.Karsev, S.V.Ivanov, P.S.Leybengrub, A.A.Vagin va boshqalarning tarix fanini o'qitish va takomillashtirishdagi xizmatlari. Tarix o'qitish metodikasiga doir uslubiy va didaktik adabiyotlarda tarix o'qitishga bo'lgan zamonaviy talabalar, zamonaviy tarix darslarining mazmuni mustaqil O'zbekiston Respublikasining yoshlar orasida olib boriladigan mafkuraviy ishlar vazifalariga mos kelishi.

## **4-ma'ruza. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi darslarining samaradorligini oshirish yo'llari.**

Tarix darslari samaradorligini oshirish yo'llari, o'quv-tarbiya, tarixiy faktlar, tushunchalar, "makon", "zamon", tarixiy arxiv hujjatlari, rasm, chizmalar. statistik ma'lumotlar, ma'ruzada real faktlar, an'anaviy ma'ruza o'qish.

muammoli ma'ruza o'qish, jadallashgan ma'ruza o'qish, ma'ruza matni, bugungi kunda o'quv tarbiyaviy-ishlar samaradorligini oshirib borishning vazifalari va muvoffaqiyatlari sabablari, dars samaradorligini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan kamchiliklar, muammoli ta'lim-tarbiya, tarix darslari samaradorligini oshirishda va tarixchi pedagoglarni tarbiyalab yetishtirishda pedagogik amaliyotlarning ahamiyati.

#### **5-ma'ruza. Uzlüksiz ta'lim tizimida dars o'tishning xususiyatlari.**

Uzlüksiz ta'lim tizimida dars o'tishning xususiyatlari, tayanch iboralar, ma'ruza, ma'ruzaning funktsiyalari, kirish ma'ruzasi, mavzu bo'yicha ma'ruza, yo'l yo'riq ko'rsatuvchi ma'ruza, ma'ruzada real faktlar, an'anaviy ma'ruza o'qish, muammoli ma'ruza o'qish, jadallashgan ma'ruza o'qish, ma'ruza matni, kadrlar tayyorlash milliy dasturining ahamiyati, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uzlüksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi, kadrlar tayyorlash va dars berish mazmunini o'zgartirish – davr talabi.

#### **6-ma'ruza. Tarixiy fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan metodlar va ularni tanlash mezonlari.**

Tarixiy fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan metodlar va ularni tanlash mezonlari. Metodika, pedagogika, metod, metodlarga yondashish, reproduktiv faoliyatni ta'minlovchi metod, produktiv faoliyatni ta'minlovchi metod, didaktika, didaktika printsiplari (tamoyillari), didaktik sakkiz burchak, bilishning (kognitiv) darajasi, dars o'tish printsiplari (tamoyillari), o'qitish shakllari, maslahat darslari, pedagogik texnologiya va unga turli jihatdan yondashish. Pedagogik texnologiyaning o'rganish ob'ekti sifatida e'tirof etilishi, ta'lim texnologiyasida dars o'tish metodlarining tutgan o'rni, dars o'tish metodlarini tanlash mezonlari.

#### **7-ma'ruza. Tarix ta'limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari.**

Tarix ta'limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari, kitob ustida mustaqil ishlash, «muallifdan so'rang» usuli, tanqidiy nazar, tsitata, sharh, B/B/B jadvali, insert metodi, T sxema, semantik xususiyatlar tahlili, kontseptual jadval, «sinkveyn» metodi, blitso'yin, FSMU metodi, «Delfa» metodi, iqtisodiy paradoks, iqtisodiy topishmoq, milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari va yangi pedagogik texnologiya muammolari, yangi pedagogik texnologiyalarning vujudga kelish tarixi, maxsus fanlarni o'qitishda eng yangi texnologiyalar.

### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining ilmiy pedagogik fan sifatida shakllanishi. Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
2. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi darsining turlari va tuzilishi. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining nazariy asoslari.
3. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining metodologik asoslari. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi darslari va unga bo'lgan zamonaviy talablar.
4. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi darslari samaradorligini oshirish yo'llari. Uzluksiz ta'lim tizimida dars o'tishning xususiyatlari.
5. Ta'lim-tarbiya tizimida tarix o'rganishga integratsion yondashish. Tarixiy fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan metodlar va ularni tanlash mezonlari.
6. Tarix ta'limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. Metodlar va ularni tanlash mezonlari.
7. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish.
8. Maxsus fanlarni o'qitishda ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallari va texnik vositalardan foydalanish. Talabalar bo'sh vaqtining tuzilishi va undan samarali foydalanish

### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tarix o'qitish usullari fanining mazmuni va ta'lim – tarbiyaviy vazifalari.
2. Ta'lim islohoti va tarix o'qitish usullarini takomillashtirilishi.
3. Tarix o'qitish jarayonida bakalavriat talabalarining mustaqil faoliyatini oshira bilish usullari va yo'llari.
4. Tarix darslarining turlari va ularni rejalashtirish.
5. Tarix o'qituvchisining ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni.
6. Tarix darslari, uning xillari va tuzilishi.
7. Tarixiy bilimlarni shakllantirish jarayoni.
8. Tarix darslari samaradorligini oshirib borishning asosiy omillari.
9. Tarix o'qitishning og'zaki va ko'rgazmali usullari.
10. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularning tarix ta'limidagi o'rni.
11. O'quv jarayonida turli pedagogik usullarni qo'llashning zarurati.
12. "Aqliy hujum" va "case study (keys)" usuli asosida dars o'tish.

13. Maxsus fanlarni o'qitishda ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallari va texnik vositalardan foydalanish.
14. Darslarni aniq savollar va suhbatlar asosida olib borish usuli.
15. Maxsus fanlarni o'qitishda boshqa usullarni qo'llash.

Mustaqil ishni bajarishda talaba ushbu fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:

1. Tarqatma materialning ma'ruza qismini o'zlashtirish;
2. Maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar)dan foydalangan holda ushbu mavzu bo'yicha ish olib borish;
3. Yangi asbob-uskunalar, apparatlar, ilmiy jarayonlar va texnologiyalarni rivojlantirish;
4. Talabani ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liq mavzuni chuqur o'rganish;
5. Faol o'qitish usullaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlari (munozaralar, seminarlar, kollokviumlar va boshqalar);
6. Masofaviy o'qitish.

O'qituvchi tomonidan taklif etilgan mavzular bo'yicha qo'shimcha materiallarni mustaqil ravishda o'rganish uchun talabalar har xil mustaqil ishlarni tayyorlaydilar, shu jumladan: prezentatsiyalar, ma'ruzalar, insholar, insholarni tayyorlash va taqdimotlarni tashkil qilish.

### 3. V. Fan o'qitilishning natijalari (shakillanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

ilmiy-tadqiqot sohalari tasnifini (risola, monografiya va sh.k.), ilmiy ishning mazmun-mohiyati va nazariy asoslarini, tadqiq va tatbiq qilish usullarini bilishi; zamonaviy Axborot-resurs markazlaridan, elektron vositalaridan ma'lumot olishni, ulardan foydalanib, zarur ilmiy xulosalar chiqarish malakasiga ega bo'lishi; keng mushohadali, 2-3 chet tillarini o'rganishi, ayniqsa so'z boyligini oshirishi, punktuatsiya, stilistika (antonim, sinonim, arxaizm...) qoidalarini bilishi uchun hamda tarixiy asarlar bo'yicha yozilgan badiiy adabiyotlarni ko'p o'qishi; akademik nashr, yilnoma, agiografik asar, memuarlar haqida bilishi va ularni tahlil qilish ko'nikmalari **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**

maxsus fanlarining boshqa fanlar bilan bog'liqligini; oliy o'quv yurtlarida maxsus fanlarini o'qitish xususiyatlarini; "birlamchi manba", "ikkilamchi manba", manba (qo'lyozma, arxiv hujjatlari) bilan ishlash **ko'nikmalariga ega bo'lishi;**

|    |   |
|----|---|
|    | <p>xorijiy adabiyotlar bilan ishlash va ulardan kerakli iqtibos (snoska), istixroj (sitata) olish ko'nikmalariga ega bo'lishi; ilmiy asar va badiiy adabiyot nazariyalarini tahlil qilish, voqea-hodisalardan tarixiylik nuqtai nazar bilan ilmiy xulosalar qilish va ularni tadqiqotda aks ettirish <i>tajribasiga ega bo'lishi</i>;</p> <p>muammoli o'qitish, uning usullarini anglay olishni; magistrantlarning bilimini aniqlash shakllarini bilishni; magistrantlarning bilimini nisbiylikda tahlil qila bilish; ilmiy adabiyotlarni mustaqil o'rganish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.</p>  |
| 4. | <p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>  |
| 5. | <p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>  |
| 6. | <p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tojiboyeva D, Yo'ldoshev A. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Aloqachi, 2009. – B. 570.</li> <li>2. Doniyorov A.X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. – Toshkent: NIF MSH, 2020. –B. 444.</li> <li>3. Алимова Д.А. История как история, история как наука. – Т. 2014.</li> <li>4. Дониёров А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи фанидан таълим технологияси. – Тошкент: Yangi nashr, 2010.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016.</li> <li>2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017.</li> <li>3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt</li> </ol> |



|    |  |
|----|--|
|    | <p>taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.</p> <p>4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <p>5. <a href="http://www.mfa.uz">www.mfa.uz</a></p> <p>6. <a href="http://www.diss.natlib.uz">www.diss.natlib.uz</a></p> <p>7. <a href="http://www.cyberleninka.ru">www.cyberleninka.ru</a></p> <p>8. <a href="http://www.tarix.uz">www.tarix.uz</a></p> <p>9. <a href="http://www.history.uz">www.history.uz</a></p> <p>10. <a href="http://www.tashgiv.uz">www.tashgiv.uz</a></p> |
| 7. | <p>O‘quv dasturi “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasida ishlab chiqilgan 202__ yil “__” __dagi __ sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p> <p>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti kengashining 2022 yil “30” <i>iyun</i> dagi 11 sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>  |
| 8. | <p><b>Fan/modul uchun mas’ul:</b></p> <p>I.M. Haydarov – TDSHU, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari doktori.</p>  |
| 9. | <p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>A.X. Doniyorov – TDSHU, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasida professori, tarix fanlari doktori, professor</p> <p>X.S. Jumanazarov – O‘zR FA Tarix instituti, Etnologiya va antropologiya markazi doktoranti, PhD.</p>   |